

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya. *O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, so'z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. U insonlardagi mehr-muhabbat, insonparvarlik, vatanparvarlik va ilmga bo'lgan muhabbatga yuksak ehtirom bilan qaragan. Zotan, bashariyat uchun butun ilmini bag'ishlagan ulug' inson sifatida bugun uning har bir misrasi bebaho gavharga teng desak mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyotni bir hovuz desak, Navoiy uning qa'ridagi eng durdona injularni tera bilgan ma'rifat egasidir.*

Kalit So'zlar: *"Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", ta'lim, tarbiya, ilm-fan, didaktik ruhiyat.*

Annotation. *Hazrat Alisher Navoi, the great thinker of the Uzbek people, the sultan of words, paid special attention to the education of young people. He highly respected people's love, humanity, patriotism and love of science. It is no exaggeration to say that today, as a great man who devoted all his knowledge to humanity, every verse of his is equal to a priceless gem. If we call literature a pool, Navoi is the owner of enlightenment who was able to pick the most precious pearls from its depths.*

Key Words: *"Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", education, training, science, didactic spirit.*

Аннотация. *Хазрат Алишер Навои, великий мыслитель узбекского народа особое внимание уделял воспитанию молодежи. Он высоко ценил народную любовь, гуманность, патриотизм и любовь к науке. Не будет преувеличением сказать, что сегодня, как великий человек, посвятивший все свои знания человечеству, каждый его стих равен бесценной жемчужине. Если назвать литературу омутом, то Навои — обладатель просвещения, сумевший подобрать из его недр самые драгоценные жемчужины.*

Ключевые Слова: *"Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", образование, обучение, наука, дидактическое мышление.*

Yuksak ma'rifat egasi Alisher Navoiy o'zining bir qancha asarlarini ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan. Insonlarni insonparvarlikka, ilm-ma'rifatli bo'lishga chaqirgan. Shuningdek, uning o'zi ham shu yo'lda tinimsiz zahmatlar chekib, yoshlarning ta'lim olishi uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqqan. Uning asarlarida ufurib turgan ma'no shu qadar serjiloki, ular bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotgan emas.

U qo'liga qalam olar ekan, insoniylik sharafi hamda mas'uliyati haqida so'z yuritdi. Navoiyning fikricha, barqaror davlat va namunali jamiyatni qurishda mukammal axloq, ilm

egasi bo'lgan yoshlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun u o'z zamonasining ilmga, hunarga intiluvchan yoshlarini nihoyatda ardoqlar edi.

Navoiy tasviridagi Shirin ham har jihatdan go'zal inson. Uning ma'naviy dunyosi va uni o'rab turgan muhit Farhodga mos, go'zal va yuksak darajada. Shoir bu ikki badiiy timsol misolida ham o'z davri uchun, ham o'zidan keyingi barcha davrlar uchun ibrat bo'la oladigan komil insonlar tasvirini yaratdi. Allomaning fikricha, bu insonlarni ilm kamolot darajasiga yetkazgan. Farhodning yoshligi haqida so'zlar ekan, shoir uning ilmga bo'lgan ishtiyoqini olqishlab:

O'qub o'tmas, uqib o'tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori,
deydi.

U "Hayrat ul-abror"da "ilm" so'zidagi harflarni quyosh, oy, kunduz, deya sharhlaydi. Shoirning nazarida ilmning bor-yo'g'i yorug'likdan iborat. Ilm jaholat tunini yoritadi. Insoniylikning shartlaridan biri ilm bo'lsa, biri ishqqa sadoqat deyiladi:

Yorki bor, anda vafo bordir,
Umr degin, yori vafodordir.

Shoir bu tushunchani juda keng ifodalaydi. Uning nazdida ishq insonlarga, kasb-korga, ota-onaga, do'stga nisbatan bo'lishi mumkin.

"Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh...

Dostonning o'n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzathurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir o'sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo'lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi:
Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o'ldi amal aylagil.

Bizga ma'lumki, demokratiya, so'z erkinligini ko'pincha G'arb mamlakatlarning mevasi, deb taqdim etadilar. Haqqoniy, xolis axborotning saltanatni boshqarishdagi

ahamiyati haqida «Sen shohsen – agar ogohsen, agar ogohsen shohsen sen», deb bundan besh yil oldin xitob qilgan Alisher Navoiy chin ma'noda demokrat edi.

Shoirning fikricha, insonning qadr-qimmatini uning mol-mulki bilan emas, balki ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o'lchanadi. Navoiy falsafasida siyosiy nazariya (ideal davlat qurish) va axloqiy nazariya (komil inson ta'limoti) uzviy bog'liqlikda ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy masalada shoir gumanistik ta'limotni yaratdi: shohni bog'bonga, mamlakatni bog'ga qiyosladi, unga ko'ra, bog'bon oqil, mehnatsevar bo'lsa, bog'i gullab yashnaydi, podshoh ma'rifatli, bilimdon, adolatparvar bo'lsa, xalqini sevsa, mamlakati obod bo'ladi! Buyuk shoirning ma'naviyatimiz uchun qo'shgan olamshumul hissasi jasorat namunasi edi. Shu bois, Zahiriddin Muhammad Bobur "Turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas", deb e'tirof etadi.

Qila olg'uncha ul bo'lsin shoirning,
Ki yaxshi ot qolg'ay yodgoring.

Alisher Navoiyning ulug' siymosi ul zotning ruhoniyyati, benazir shaxsiyati va so'zni san'at darajasiga ko'targan ijodkor ekanligi bilan belgilanadi. Uning shu zamonda – yangi asrda ham zamonaviy shoir sifatida yodga olinayotgani behikmat bo'lmasa kerak". Darhaqiqat, Navoiy asarlaridagi halollik va pokdomonlik mohiyati, milliy o'zlik tuyg'usi va falsafiy tushunchalar yangi asrda ham mudom insoniyatni ogohlikka chorlamoqda:

Demonkim ko'ngli pok-u ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.
Dedi: Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Allomaning inson haqidagi diniy-ilohiy qarashlari islomiy tamoyillar ta'sirida shakllangan. U insoniyatni komillik saodati sari chorlar ekan, uning ma'naviyati, tafakkuri, odobi va axloqiy go'zalligiga alohida e'tibor beradi. Hazrat Navoiy iymonli bo'lishni insoniylikning eng birinchi va eng asosiy belgisi deb biladi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki nishoni anga iymon erur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Hazrat Alisher Navoiy bugungi kun hayotini ham marvarid durdonalari bilan boyitmoqda. Uning asarlari har bir adabiyotga oshno qalb uchun adabiyot bulog'ining sarchasmasi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://xs.uz/uz/post/insonijlik-shartlari-alisher-navoiy-bu-haqda-nima-dejdi>
2. <http://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/alisher-navoiy/>
3. <https://oyina.uz/uz/article/566>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/alisher-navoiy-ijodida-ta-lim-tarbiya-masalalari-hayrat-ul-abror-dostoni-asosida>